



Salomat ARTIQOVA,
Urganch innovatsion universiteti magistranti
E-mail: shixnazarmadiyorov@gmail.com

Dots., Q.Olloyorov taqrizi asosida

XORAZM DOSTONLARIDA SHAXS NOMLARINING FUNKSIONAL SEMANTIK JIHATLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada Xorazm dostonlari leksikasida uchraydigan shaxs nomlarining, xususan, eroniy tillarga mansub onomastik birliklarning funksional-semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Dostonlarda qo'llangan "Gul", "Bonu", "Xisrav", "Faridun" kabi nomlar asosida ular nafaqat kishining tashqi ko'rinishi, ijtimoiy mavqei, balki madaniy-estetik qadriyatlar ifodachisi sifatida ko'riladi. Shuningdek, maqolada bu nomlarning yozma adabiyot, xususan Alisher Navoiy asarlari bilan mushtarakligi, ularning milliy va diniy tafakkurda tutgan o'rni ham yoritilgan. Tadqiqot natijalari dostonlar tilida uchraydigan antroponimlarning tarixiy ildizlari va semantik yukini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Onomastika, antroponim, Xorazm dostonlari, forsiy qatlam, semantika, madaniy kod, yozma adabiyot, Navoiy, tarixiy nomlar, folklore.

FUNCTIONAL AND SEMANTIC ASPECTS OF PERSONAL NAMES IN KHOREZM EPICS

Annotation

This article analyzes the functional and semantic features of personal names, particularly Iranian-origin onomastic units, found in the lexicon of Khorezm epics. Names such as "Gul", "Bonu", "Khusrav", and "Faridun" are examined not only as identifiers of personal traits or social status but also as bearers of cultural and aesthetic values. The article also explores the commonality of these names with those found in classical written literature, especially in the works of Alisher Navoiy, and their role in reflecting national and religious thought. The study provides important insights into the historical roots and semantic depth of anthroponyms used in epic narratives.

Key words: Onomastics, anthroponym, Khorezm epics, Persian layer, semantics, cultural code, written literature, Navoi, historical names, folklore.

ФУНКЦИОНАЛЬНО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ЛИЧНЫХ ИМЕН В ХОРАЗМСКИХ ДАСТАНАХ

Аннотация

В статье рассматриваются функционально-семантические особенности личных имен, особенно ономастических единиц иранского происхождения, встречающихся в лексике хоразмских дастанов. На примерах таких имен, как «Гуль», «Бону», «Хусрав», «Фаридун», показано, что они отражают не только внешние черты и социальный статус персонажей, но и несут в себе культурно-эстетические ценности. Также анализируется схожесть этих имен с именами в классической письменной литературе, в частности в произведениях Алишера Навои, и их значение в национальном и религиозном сознании. Полученные результаты важны для осмысления исторических корней и семантической нагрузки антропонимов, используемых в эпических произведениях.

Ключевые слова: Ономастика, антропоним, хоразмские дастаны, персидский слой, семантика, культурный код, письменная литература, Навои, исторические имена, фольклор.

Kirish. Turkiy xalqlar tili juda qadim davrlardan buyon O'rta Osiyoda azaldan yashab kelgan eroniy tillar bilan aloqada bo'lib kelgan. Manbalarda ta'kidlanishicha, O'rta Osiyo, xususan, hozirgi O'zbekiston hududida turkiy tilda gaplashuvchi aholi ham qadimdan yashagan. So'nggi davr tadqiqotlarida "o'zbeklar ikki xil tilda so'zlashuvchi – sharqiy eroniy va turkiy qabila va elatlarning qorishuvidan tarkib topgan etnosdir", – deya ta'kidlanadi [1]. Shunday ekan, hozirgi turkiy tillar va o'zbek tilida uchrovchi so'g'd, xorazmiy tillari elementlari qadimiy davrlarda yuz bergan tillararo aloqalar natijasi deb qaralmog'i kerak.

Eroniy tillarning izlari, ayniqsa, Xorazm shevalari leksikasida juda sezilarlidir. Prof. O.Madrahimovning qayd qilishicha, "eroniy tillar o'zagiga aloqador bo'lgan leksik qatlam Xorazmdagi o'g'uz shevalari leksikasining organik qismiga aylanib ketgan. Ular kundalik hayotda ko'p ishlatiladigan zarur va muhim tushunchalarni ifodalovchi so'zlardir [2]". Ular sheva vakillari tiliga shu darajada singib ketganki, hatto, bu elementlar boshqa til oilasiga mansub ekanligini payqash ham ancha mushkul. Buning asosiy sababi,

Sh.Shoaabdurahmonov qayd qilganidek, "forsiy so'zlar o'zbek tili va shevalariga adabiyot orqali kirmadi, balki xalqlarning asrlar davomida birga, hamkor hayot kechirgani, bevosita munosabatida o'zaro bo'lgan zarurat tufayli kirgan [3]".

Og'zaki dostonlar tili ko'proq so'zlashuv tiliga yaqin bo'lganligi sababli, ularda ham shevaga xos xususiyatlar to'la saqlangan. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, onomastik birliklar ham garchi boshqa tillardan o'tgan bo'lsa-da, mavjud sheva vakillari tiliga to'liq moslashgan. Quyida dostonlar onomastik tizimida uchraydigan eroniy tillarga xos nomlar haqida to'xtalamiz.

Gul. Ushbu forsiy tillarga mansub onomastik birlik mustaqil antroponimning asosi yoki komponenti sifatida kishi nomlari hosil qilishda juda ham faol bo'lib, dostonlar onomastik tizimidagi ko'plagan nomlar tarkibida uchraydi: Gulasal ("Yusuf va Ahmad" dostoni, 23-bet), Gulrux, Gulruxpari, Gulruxsor ("Avaz uylangan" dostoni, 99, 101-betlar), Gulandom ("Go'ro'g'li" dostoni, 31-bet), Gulshirin ("Arab tang'an" dostoni, 143-bet), Gulxiromon ("Xirmondali" dostoni, 273-bet), Gulshan ("Xirmondali"

dostoni, 310-bet), Guljon, Gulqiz, Gulnoz ("Gulqizoy" dostoni, 144-bet), Guljamila ("Hurliqo va Hamro" dostoni, 107-bet), Gulsarvi ("Edigo" dostoni, 243-bet), Gulchehra ("Oshiq Albani" dostoni, 147-bet), Gulchaman ("Oshiq Najab" dostoni, 95-bet), Gulsutun ("Shahriyor" dostoni, 343-bet) va boshqalar.

O'rta Osiyo xalqlarining deyarli barcha tillarida uchraydigan ushbu element nomning asosi bo'lib kelishi, shuningdek, ismga qo'shilib ham kelishi mumkin: Donogul ("Donogul"), Ko'kgul ("Edigo"), Lolagul ("Gul va Sanobar"), Novgul ("Sayyod va Hamro"), Oygul ("Avaz"), Oqchagul ("Yunus va Misqol"), Olmagul ("Zulfizar"), Sarvigul ("Xandon botir"), To'tigul ("Go'ro'g'li") va boshqalar. Mazkur onomastik birlik hozirgi kunda, asosan, ayollar ismiga qo'shilib keladi. Bu xususiyat uning gender jihatdan xususiyatlashganligini bildiradi. Ammo, "Edigo" dostonida Ko'kgul shaklida erkak kishining ismi tarkibida qo'llangan: "...Ammo, Ko'kgul degan bola tamomi o'g'lonlarning ushqolarni utdi [4]..."

Xorazm shevalari antroponimlarini kuzatar ekanmiz, hozir ham Gulmon, Gulimmat, Gulmirza kabi erkak kishilarning ismlarini uchratamiz. Demak, bu element bir vaqtlar erkak ismlarini yasashda ham qatnashgan. Gul elementi nomlar tarkibida "chechak, chiroyli, xushro'y" kabi ma'nolarni anglatadi. Qiyos qiling:

Gulandom – gulga o'xshash bo'y, gulday kabi qomat;
Gulora – gullar bilan bezangan;
Gulasal – gurning asali (gulday go'zal, asalday shirin);
Guljamol – gulday ochilgan, go'zal yuz, mukammal;
Guljahon – dunyoning guli, go'zallikda dunyoda

yagona;

Gulizar – gulyuzli (gul + arabcha izar "yuz, oraz");
Gulniso – ayollarning go'zali;
Gulnigor – gul yuzli, gulchehra;
Gulnor – anor guli;
Gulnoz – nozli gul va shu kabilar.

Bonu. Ushbu eroniy tillarga xos bo'lgan onomastik birlik dastlab grammatik ma'no ifodalagan. Ma'lumki, eroniy tillarda turkiy tillardagi kabi jins ifodalovchi grammatik ko'rsatkich yo'q. Shu sababli, jins ma'nosi leksik usulda, ya'ni so'zlar yordamida ifodalangan. Jumladan, qadimgi Eronida davlat boshqaruvchi, hukmdor xshatradora so'zi bilan yuritilgan. Xshatra qadimgi fors tilida "davlat, hokimiyat" degan ma'noni bildirgan. (yangi fors tilidagi shaxr "shahar" so'zi ham ushbu o'zak bilan bog'liq). Dora (yangi fors tilida – "dor") "egallovchi" (rus. oblatatel) demakdir. Shunday ekan, xshatradora "hokimiyat egasi" degan ma'noni anglatadi. Keyinchalik, hozirgi fors tilida shahriyor shakliga kelgan, bu so'z ayni vaqtda unvon ma'nosida ham qo'llangan. "Shahriyor"ning xotini esa "Shahribonu" maqomini olgan. Qishloq hokimi katxudo deb yuritilgan, uning xotini katbonu yoki kadbonu, ya'ni "qishloq bekasi" (aynan, uy bekasi) deb atalgan. Umuman, dastlab bonu elementi mustaqil qo'llanmagan, u ayollar ismini hosil qilish uchun xizmat qilgan. Masalan, eroniyalarda Gavhar ismi erkak kishilar nomi sifatida mavjud bo'lgan, unga bonu komponenti qo'shilgach ayol nomi Gavharbonu hosil bo'lgan. Dastlab bonu elementi yuqori tabaqa ayollari ismiga qo'shilgan, keyinchalik barcha toifa vakillari nomiga qo'shib ishlatish odat tusiga kirgan.

Ushbu komponent Xorazm dostonlarida ham qo'llanilgan. "Xiromon pari", "Sayyodxon va Hamro" dostonlarida Bonu so'zi mustaqil holda nom sifatida qo'llangan: "...Ammo qizlarning ichida ikki kaniz bor erdi, birining oti Bonu, yana birining oti Lizon erdi [5]... Mazkur element "Malikai Zavriyo" dostonida Shahribonu shaklida qo'llanilgan: "...So'najonning bir kanizi bor erdi. Oti'ga Shahribonu der erdilar [4]..."

Xorazm o'guz shevalarida nomning fonetik tarkibi o'zgarib "Sharvon" shakliga kelib qolganligini ham qayd qilib qo'yish lozim. Lekin, bu kabi antroponimlar bugungi kunga kelib ma'lum darajada arxaiklashish jarayonini boshidan kechirmoqda.

Umuman, eroniy asosli nomlar haqida so'z borar ekan, ular dostonlar onomastikasida uchraydigan eng qadimgi nomlar sifatida qayd qilinishi lozim deb hisoblaymiz. Bunday nomlarning ayrimlari Avesto yodgorligi matnlarida, Firdavsiyning "Shohnoma" asari kabi qadimeroniy manbalarda ham uchraydi.

Xisrav/Xusrav. "Hurliqo va Hamro" dostonida uchraydi: "...Misr viloyatida bir podsho bor erdi. Oning otini Xisrav der erdilar [4]... "Oshiqnoma" turkumiga qarashli dostonlarda uchraydigan Xisrav nomi "Avesto" yodgorligida – Kavay Xavsarava, yoxud Kavay Xavsaravangxa, pahlaviyda – Kay Xisrav, forsiyda – Kayxusrav shakllarida qo'llanilishi manbalarda qayd etib o'tilgan.

Eron afsonalarida Siyovush va Farangisdan tug'ilgan bolaning nomi. Kovus va Afrosiyobning nabirasi. U eron adabiyotida botir, qo'rqmas va mashhur hukmdorlardan biri sifatida ta'riflanadi. Kayxusrav Eron va Hind adabiyoti uchun mushtarak timsollardan biridir. Mazkur nom tarkibidagi ikkinchi komponent Xusrav forsiy tilda podshoh, hukmdor ma'nolarini ham anglatadi [7]. Bu ma'no hozirgi fors tilida muayyan darajada arxaiklashgan.

Xorazm dostonlari tilida uchraydigan forsiy qatlamga oid ko'pgina kishi nomlari o'zbek mumtoz adabiyoti, xususan, Alisher Navoiy asarlari tilida uchraydigan nomlar bilan umumiylik kasb etishi tekshirishlardan ma'lum bo'ladi. Bu holatni folklor asarlari va badiiy asarlar yuzasida tadqiqotlar olib borgan ko'plagan olimlar ham tasdiqlashadi. Chunki, folklor asarlari badiiy adabiyot uchun zamin yasaydi. Badiiy adabiyot hamisha folklor asarlaridan oziqlanadi, ulardagi tasvir usullari-yu, sujetni shakllantirishda muhim ro'l o'ynovchi obrazlardan ununimli foydalanib kelinadi.

Ushbu holatni nafaqat xalq dostonlari orasida, balki yozma adabiyotga taalluqli asarlar, xususan Alisher Navoiy asarlari tilida uchraydigan nomlar orasida ham kuzatish mumkin. Ma'lumki, o'zbek xalqi juda katta yozma va og'zaki adabiy merosga ega. Buning ichida hajm va mazmun jihatidan o'ziga xos o'rinni, albatta, Navoiy ijodi egallaydi. Yozma va og'zaki manbalarga oid nomlarning qo'llanishi bo'yicha bir qancha tadqiqotlar olib borilgan bo'lsa-da, ularni yetarli darajada deb hisoblash unchalik ham to'g'ri bo'lmaydi.

Alisher Navoiy asarlari va dostonlar tiliga mansub manbalardagi nomlarning umumiy jihatlarini tekshirish juda qiziqarli ma'lumotlarni yuzaga chiqaradi. Bunday umumiylikning ham o'ziga xos sabablari mavjud. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, yozma adabiyotning vujudga kelishida xalq og'zaki ijodiga mansub asarlar zamin vazifasini o'tagan. Shunday ekan, folklor asarlari va yozma adabiyot o'rtasiga ma'lum darajada yaqinlik, o'xshashlik va umumiyliklar mavjud bo'lishi tabiiy holatdir. Mavjud umumiylik ulardagi atoqli otlar tizimida ham yaqqol aks etadi.

Xorazm dostonlari tili va Navoiy asarlari tiliga xos onomastik tizimida birdek qo'llanuvchi nomlar orasida eng katta ulushni kishi nomlari (antroponimlar) tashkil etadi. Dostonlar tili va Navoiy asarlari xos umumiylikka ega kishi nomlari orasida ham katta foizi diniy qarashlar bilan bog'liq bo'lgan: Bahovaddin (Balogardon), Sulton Uvays, Dovud, Masiho va shu kabi nomlardir. Diniy xarakterga ega bo'lgan nomlardan yozma adabiyot va og'zaki ijod namunalari payg'ambarlar va Ollohning sifatlarini ifodalovchi onomastik birliklar ancha faol qo'llanilishi bilan xarakterlidir.

Alisher Navoiyning yashagan hududi va u yashagan zamon nuqtayi nazaridan qaraganimizda, uning asarlari tilini forsiy tillarga xos birliklarsiz, shu jumladan, onomastik

birliklarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shunday ekan, qadimeroniy manbalar tilida, xususan, Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma" asarida uchraydigan ko'plagan mashhur qahramonlar timsollariga Navoiy ham murojaat etadi, ular asosida ajoyib talmehlar qo'llaydi.

Dostonlar tili va Navoiy asarlari leksikasida tarixda yashab o'tgan tarixiy shaxslar, mashhur asarlarning qahramonlari hisoblanadigan: Jamshid, Suhrob, Taxmuras, Faridun, Doro kabi eroniy tillarga aloqador kishi nomlari ham o'ziga xos umumiyliklarni yuzaga chiqaruvchi nomlardan hisoblanadi.

Masalan, Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonidan olingan quyidagi parchada eroniy tillarga oid bir qancha kishi nomlari qo'llanilganini ko'ramiz:

Necha ming xum nihon qilg'on Faridun,
Vale har biur nechukkim xumi gardun [8] ..., yoki:

...Qani Tahmuras-u, Jamshid-u, Zahhok,
Ki har biri oldi olam mulkini pok [8]...

Parchda keltirilgan Faridun nomini "Go'ro'g'li" turkumiga kiruvchi "Zulfizar" dostoniga qarashli "...Jamshid Faridunman, Zol-u, Rustam zar" misralarida qo'llanilganinin yuqorida ko'rib o'tgan edik.

Faridun haqida manbalarda bir qancha ma'lumotlar keltiriladi. Jumladan, nomning ilmiy-badiiy matnlarda Afridun shakli ham mavjud. Qadimgi Erondagi peshdodiylar sulolasiga mansub podshoh nomi sifatida talqin etiladi. Navoiyning "Tarixi muluki ajam" asarida yozishicha, Faridun ba'zi manblarda Jamshidning nabirasi, boshqalarida esa, Taxmuras avlodidan deb talqin qilinadi. Faridun zolim va odamxo'r shoh hisoblangan Zahhokka qarshi kurashib, uni o'ldiradi. Navoiy uni "yaxshi axloqli va odil" edi deya ta'riflaydi. Faridun o'zining xazina boyliklari bilan mashhur.

ADABIYOTLAR

1. Asqarov A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. –Toshkent: Universitet, 2007. – B.235.
2. Madrahimov O. O'zbek tilining o'g'uz lahjasi leksikasi. Toshkent, "Fan", 1973. – B. 49.
3. Shoabdurahmonov Sh. O'zbek adabiy tili va o'zbek xalq shevalari. Toshkent, "Fan", 1962. – B.222.
4. Oshiqnoma. 1-kitob. Mas'ul muharrir S.Ro'zimboyev. –Urganch: Xorazm nashriyoti, 2006.
5. Oshiqnoma. 2-kitob. Mas'ul muharrir S.Ro'zimboyev. –Urganch: Xorazm nashriyoti, 2006.
6. Navoiy, Mukammal asarlar to'plami, 9-jild, Toshkent, 1992. – B.327.
7. Персидско-русский словарь. –М. 1983, I tom. –С.553.
8. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 8-jild. –Toshkent: Fan, 1991. – B. 162.